


**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:  
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



## **MIRZA MEHDIKHAN'S WORK "MABANIU-L-LUGAT" AND ITS PLACE IN TURKOLOGY**

***Kholida Zikrillaevna Alimova***

*professor, Doctor of Sciences*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [xolidaxon66@mail.ru](mailto:xolidaxon66@mail.ru)*

### **ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Mirza Mehdi Khan, Sanglakh, Mabani'l-lughat, Navayi, Old Uzbek language, Chaghatay language, Tarsif, Mabna.

**Received:** 15.05.24

**Accepted:** 17.05.24

**Published:** 19.05.24

**Abstract:** Dictionaries written in Persian between the 15th and 18th centuries constitute a significant source of information for the study of the Old Uzbek language. A considerable number of these dictionaries are devoted to the study of the language of Mir Alishir Navayi, an eminent figure in Uzbek literature. Among the philological works, Mirza Mehdi Khan's dictionary "Sanglakh" with a grammatical essay "Mabani'l-Lughat" ("Basics of the Language") is of particular note. This is the first valuable and, in comparison with others, more polished and reliable work on the grammar of the Old Uzbek language.

The article provides an overview of Mehdi Khan's grammatical system and presents an analysis of the grammatical material of "Mabani'l-Lughat". The essay is divided into three sections: a preface, a grammar section, and six sections, or bases, which describe various grammatical forms and phenomena. The study of the grammatical material of "Mabani'l-Lughat" is of great importance in solving a number of problematic issues related to the history of the Uzbek language and for compiling a historical grammar of the Uzbek language.

**MIRZO MEHDIXONNING “MABONIU-L-LUG‘AT” ASARI VA UNING  
TURKOLOGIYADAGI O‘RNI**

**Xolida Zikrillayevna Alimova**

*professor, filologiya fanlari doktori*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O‘zbekiston*

*E-mail: [xolidaxon66@mail.ru](mailto:xolidaxon66@mail.ru)*

**МАQOLA HAQIDA**

**Kalit so‘zlar:** Mirzo Mehdixon, Sanglox, Maboniu-l-lug‘at, Navoiy, eski o‘zbek tili, chig‘atoy tili, tarsif, mabno.

**Annotatsiya:** XV-XVIII asrlarda fors tilida yaratilgan lug‘atlar eski o‘zbek tili tadqiqida muhim manba sanaladi. Bularning aksariyati Hazrat Navoiyning til xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Filologik asarlar orasida Mirzo Mehdixonning “Sanglox” lug‘ati va unga ilova qilingan grammatik ocherk “Maboniu-l-lug‘at” (“Til asoslari”) ajralib turadi. “Maboniu-l-lug‘at” eski o‘zbek tili grammatikasiga oid yaratilgan birinchi qimmatli va to‘liq asardir.

Maqolada Mehdixonning grammatik sistemasi va “Maboniu-l-lug‘at” grammatik materialining tavsifi yoritilgan. Asar muqaddima, tarsif va olti mabnodan iborat. Mabnolar boblarga, boblar rasmlarga bo‘linib, grammatik qoidalar o‘zlashtirilishini engillashtirishga qaratilgan. “Maboniu-l-lug‘at” grammatik materialining tadqiqi o‘zbek tilining tarixiy grammatikasiga doir yechilmagan qator masalalarni hal qilish va o‘zbek tilining tarixiy grammatikasini tuzishda katta ahamiyatga ega.

**ТРУД МИРЗЫ МЕХДИХАНА “МАБАНИУ-Л-ЛУГАТ” И ЕГО МЕСТО В  
ТЮРКОЛОГИИ**

**Холида Зикриллаевна Алимова**

*профессор, доктор филологических наук*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [xolidaxon66@mail.ru](mailto:xolidaxon66@mail.ru)*

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** Мирза Мехдихан, Санглах, Мабаниу-л-лугат, Навои, староузбекский язык, чагатайский язык, тарсиф, мабна.

**Аннотация:** Немаловажными источниками при изучении староузбекского языка являются словари, написанные на персидском языке в XV-XVIII вв. Значительное число таких словарей посвящено изучению языка выдающегося классика узбекской литературы Мир Алишира Навои. Среди таких филологических трудов особо

выделяется словарь “Санглах” Мирзы Мехдихана с грамматическим очерком “Мабаниу-л-лугат” (“Основы языка”), который является первым ценным и по сравнению с другими, более полным, достоверным трудом по грамматике староузбекского языка.

В статье освещается грамматическая система Мехдихана и дается обзор грамматического материала “Мабаниу-л-лугат”. Очерк состоит из мукаддима (предисловия), тарсиф (грамматики) и шести мабна (разделов, основ), в каждой из которых описываются те или иные грамматические формы и явления. Изучение грамматического материала “Мабаниу-л-лугат” имеет большое значение в разрешении ряда проблемных вопросов, связанных с историей узбекского языка и для составления исторической грамматики узбекского языка.

## KIRISH

Hazrat Alisher Navoiy va uning zamondoshlari hamda undan ilgari o‘tgan so‘z ustalari tomonidan yaratilgan asarlar O‘rta va Kichik Osiyoning turli xalqlari namoyandalari orasida “chig‘atoy” turkiysi, ya’ni eski o‘zbek tiliga qiziqish uyg‘otdi. Bunday qiziqish qo‘llanma vazifasini bajaruvchi lug‘at va grammaticalarning ijod etilishiga olib keldi. Shunday lingvistik asarlardan biri Mirzo Mehdixonning “Sanglox” lug‘ati va unga ilova qilingan grammatik ocherk “Maboniu-l-lug‘at” (“Til asoslari”)dir.

Mirzo Mehdixonning to‘liq ismi Nizomiddin Muhammad Xoj al-Husayn as-Safaviy bo‘lib, otasining ismi Mirzo Muhammad Nasiriydir. Mirzo Mehdixonning Astrobodda tug‘ilganligi va Eron shohi Nodirshohning kotibi hamda saroy tarixchisi bo‘lganligi, Nodirshohning harbiy yurishlarida qatnashib, mas’uliyathi siyosiy va boshqa topshiriqlarni bajarganligi ma’lum.

Mirzo Mehdixon o‘zining “Sanglox” asarini 1758-1760 (hijriy 1172-1173)- yilda yozib tugatgan. Dunyoda bu asarning to‘rt qo‘lyozma nusxasi mavjud. Asar nusxalaridan biri Gibb fondida, ikkinchisi Britaniya muzeyida, uchinchisi Bodleyana (Oksford)da, to‘rtinchisi Sulaymoniya kutubxonasi (Turkiya)da saqlanadi. Shuningdek, “Sanglox”ning qisqartirilgan nusxasining kopiyasi Parij Milliy kutubxonasida bor. Bu nusxa XIX asr boshida Abbas Mirzo uchun Muhammad Huveyyi tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, *Xulosayi Abbosiy* deb ataladi.

## ASOSIY QISM

“Maboniu-l-lug‘at” Hazrat Navoiy asarları asosida yozilgan eski o‘zbek tili grammatikasıdır. “Sanglox”da esa Navoiy, Lutfiy, Mir Haydar, Bobur asarlarida qo‘llangan

o‘zbekcha so‘zlar fors tilida izohlangan. Lug‘atda eski o‘zbek tilida qo‘llangan turkcha, mo‘g‘ulcha so‘zlarga ham o‘rin berilgan, atoqli otlar va geografik nomlar ro‘yxati keltirilgan. Lug‘at oxirida Navoiy asarlarida uchraydigan arabcha, forscha so‘zlar va metaforalar ro‘yxati beriladi [7, b.57-59]. Mirzo Mehdixonning “Maboniu-l-lug‘at” va “Sanglox” asarlari eski o‘zbek tili bo‘yicha yaratilgan filologik asarlarning eng mukammallaridan bo‘lib, ko‘pdan beri turkologlar diqqatini jalg etib keladi [5, 3, 13, 11, 14]. “Maboniu-l-lug‘at” 1910- yilda ingliz sharqshunosi E. Denison Ross tomonidan Kalkuttada litografiya asosida nashr qilingan bo‘lib, keyinchalik Z. Umarov tomonidan o‘rganilgan [6]. “Sanglox” esa 1960- yilda J. Klosen tomonidan Londonda faksimile asosida nashr qilindi, keyingi yillarda Q. Muhiddinov tomonidan tekshirildi [2].

“Maboniu-l-lug‘at” [12] quyidagi qismlardan tashkil topgan: 1) muqaddima; 3) tarsif; 4) olti mabno.

Muallif so‘zboshida “Sanglox”ning uning yaratilish sabablarini mufassal yozadi. Bu asar Alisher Navoiy asarlarining qiyin joylarini tushuntiradigan lug‘at sifatida maydonga kelgan. Bunday lug‘atning yaratilishi juda og‘ir va mushkul bo‘lganligi uchun ham Mirzo Mehdixon o‘z asarini “Sanglox” (toshloq) deb ataydi. U o‘zidan oldin yozilgan lug‘atlardan bir nechasini: ikki Rum turki tomonidan turk tilida yozilgan (asarlarida ismlari zikr qilinmaydi) lug‘atni va fors tilida yaratilgan Tole Haraviy, Farog‘iy, Nadr Aliy, Mirzo Abdujalil Nasiriy va ba’zi boshqa lug‘atnavislarning asarlarini eslatib o‘tadi. Mehdixon fikricha, mazkur asarlar juda ham qisqacha tuzilgan bo‘lganligi sababli kishi ehtiyojini to‘la va har tomonlama qondira olmaydi. Undan tashqari, ko‘p so‘zlarning ma’nosini ularga ma’lum bo‘lmaganligi uchun zikr qilinmagan, she’rlarni noto‘g‘ri ko‘chirilgan nusxalardan to‘g‘ri o‘qimasdan misol tariqasida ko‘rsatganlar.

**Muqaddima** qismida “Sanglox”da foydalilanilgan Hazrat Navoiyning o‘n ikkita she’riy va to‘qqizta nasriy asarlarini ko‘rsatib o‘tadi. Mirzo Mehdixonning yozishicha, aynan shu asarlar mutolaasidan so‘ng u “Sanglox” kitobini yozishga kirishgan. Bular:

she’riy asarlar: G‘aroyibu-s-sig‘ar, Navodiru-sh-shabob, Badoyi’u-l-vasat, Favoyidu-l-kibar, Hayratu-l-abror, Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Sab’ayi sayyora, Saddi Iskandariy, Lisonu-t-tayr, Arba’ini manzum, Nazmu-l-javohir;

nasriy asarlar: Mahbubu-l-qulub, Mezonu-l-avzon, Xamsatu-l-mutahayyirin, Nasoyimu-l-muhabbat, Tarixu-l-anbiyo, Tarixi muluki ajam, Majolisu-n-nafoysis, Munshaot, Vaqfnomayi madrasayi ixlosiya.

Mirzo Mehdixon Farog‘iyga qarshi chiqib, turkiy tillar o‘ziga xos grammatik qonunlarga ega ekanligi, eski o‘zbek tilidagi bu grammatik qonunlarning fors va arab tillarida uchramasligini ko‘rsatib o‘tadi. Bunday qonunlarni bir tarsif va olti mabno (asos) yordamida bayon qilib, “Maboniu-l-lug‘at”, ya’ni til asoslari deb ataydi va o‘zining bu asarini o‘zbek tilining birinchi

ilmiy grammatikasi hisoblaydi hamda o‘quvchilardan asarning kamchiliklarini to‘g‘rilashni so‘raydi.

**Tarsif** qismida arab tilidagi so‘zlarning o‘zagi masdar bo‘lsa, o‘zbek tilidagi so‘zlar (fe’llar)ning o‘zagi buyruq forma (ikkinchi shaxs, birlik) ekanligi, bu formadan har xil qo‘sishimchalar yordami bilan fe’llarning boshqa formalari yasalishini yozadi (Maboniu-l-lug‘at, 5- bet).

**Birinchi mabno** o‘n bobdan iborat bo‘lib, fe’l formalari(ning mayllari) haqida (در بیان وجوه) در بیان مصادر (صیغ) *dar bayān-e vojuh-e siyay*) deb ataladi. Bunda: birinchi bob – masdarlar *dar bayān-e masāder* (6-18- betlar); ikkinchi bob – o‘tgan zamon *dar bayān-e fe’l-e māzi* (19-23- betlar); uchinchi bob – hozirgi-kelasi zamon *dar bayān-e fe’l-e mozāre* (23-27- betlar); to‘rtinchi bob – hozirgi zamon sifatdoshi *dar bayān-e esm-e fā’el* (27-33- betlar); beshinchi bob – o‘tgan zamon sifatdoshi *dar bayān-e esm-e maf’ul* (33-35- betlar); oltinchi bob – buyruq mayli (*dar bayān-e fe’l-e amr*) (35-39- betlar); yettinchi bob – buyruq maylining inkor shakli (*dar bayān-e nahi*) (39-41- betlar); sakkizinchi bob – fe’lning bo‘lishsiz shakllari (*dar bayān-e nafī*) (41-50- betlar); to‘qqizinchi bob – ravishdosh (*dar zekr-e hāl va bayān-e takrir*) (50-54- betlar); o‘ninchchi bob – formalar belgilarining qo‘sishimchalar (*dar bayān-e tataemme-ye alāmāt-e siyay*) (54-63- betlar) haqida.

**Ikkinchi mabno** – (fe’l) formalarining yasalishi (در بیان کیفیت اشتقاق صیغ) *dar bayān-e keyfiyyat-e ešteqāq-e siyay*) haqida (64-73- betlar).

**Uchinchi mabno** – olmoshlar va ko‘rsatish olmoshlari (در بیان ضمایر و اسماء اشاره) *dar bayān-e zamāyer va asmā-e ešāre*) haqida (73-78- betlar).

**To‘rtinchi mabno (1)** – morfemalar (افاده معنی نمیکند و آنرا اهل ادب) در بیان الفاظی که بدون ترکیب، افاده معنی نمیکند و آنرا اهل ادب (*dar bayān-e alfāz-i ke bedun-e tarkib efāde-ye ma’ni namikonand va ān-rā ahl-e adab harf guyand*) (78-91- betlar); **to‘rtinchi mabno (2)** – ma’no yoki grammatic jihatdan ortiqcha bo‘lgan qo‘sishimchalar (در بیان زواید) (*dar bayān-e zavāyed*) haqida (91-96- betlar).

**Beshinchi mabno** – yordamchi so‘zlar (در بیان کلماتی که بر معنی خاص موضوع اند و افاده معنی) *dar bayān-e kalemāt-i ke bar ma’ni-ye xās-e mouzu’-and va efāde-te ma’ni-ye yeyr-e mouzu’lahu mikonad*) haqida (96-98- betlar).

**Oltinchi mabno** – imlo qoidalari (در آداب املا) (*dar ādāb-e emlā*) haqida (99-142- betlar).

Grammatikaning xotima qismida Alisher Navoiy asarlarida ishlatilgan forsiy elementlar ko‘rsatilgan.

Mirzo Mehdixon o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda tarixiy va qiyosiy metodlardan foydalangan. Asarda Rum va Eron turklari tillari dialektida turli formalarning qaysi tarzda ishlatilishi misollar orqali (asosan, Fuzuliy asarlaridan) ko‘rsatib berilgan.

Asarda keltirilgan grammatik qoida va eslatmalar Mirzo Mehdixonning turkologiya sohasidagi xizmatini baholashga imkon beradi. Masalan, birinchi mabno masdarlar bayonida keltiriladi:

*Eslatma.* Masdarlarga birinchi shaxs birlik egalik affiks *-m* oltinchi mabnoning to‘rtinchi rasmida tushuntirilgan barcha qoidalarga binoan *-im/-im* shaklida orttirilsa, masdar ma’nosini anglatadi: *almag‘im*, ya’ni olmog‘im, *kelmägim*, ya’ni kelmog‘im kabi. Agar *-um* shaklida qo‘shilsa, hozirgi-kelasi zamon fe’lining bo‘lishsiz formasi ma’nosini ifodalaydi: *almag‘um*, ya’ni olmayman, *kelmägüm*, ya’ni kelmayman kabi. O’ninchi bobda tushuntiriladigan *-g‘um*, *-gÿm* (affiksi) esa boshqa affikslar jumlasidandir.

*Qoida.* Bilki, masdarlarning qattiq va yumshoq o‘zakli bo‘lishi va masdar ismlari samoiy (qoidasiz)dir, ammo ularning fe’l formalarning yasalishi qiyosiyidir, ya’ni masdarlar qattiq o‘zakli bo‘lsa, albatta, uning (yasama) fe’l formalari *q* va *g‘*, yumshoq o‘zakli bo‘lsa, *k* bilan yasaladi (Maboniu-l-lug‘at, 15- bet).

Quyida namuna sifatida oltinchi mabno – imlo qoidalariga doir ayrim ma’lumotlarni keltiramiz.

Asarda imlo qoidalari *kirish* (تمہید *tamhid*) va *to ‘rt rasm* orqali tekshirilgan. Kirish qismida turkiy tilda so‘zlarning yozilishi o‘qilishiga mos emasligi va ko‘pincha qisqa *a* unlisi *alif* bilan, *o‘* unlisi *vov* harfi bilan, *e* (*i*) unlisi *yā* harfi bilan ifodalanishi, lekin qisqa o‘qilishi qayd qilingan. Muallif harflar almashuvi haqida ba’zi bir fikrlarni tushuntirib, *d* ni *t* ga, *g‘* ni *q* ga almashuvi doim yuz bermasligini ta’kidlab o‘tgan. O‘zidan oldin o‘tgan mualliflarning fikrlarini (mazkur harflarni doim almashtirish mumkin degan) tanqid qilib, agar mazkur harflar almashsa, so‘z ma’nosи o‘zgarishini quyidagi misollar orqali dalillagan: *yig‘maq* ‘jam qilmoq’ – ييغماق – *yiqmaq* ‘buzmoq’ – بوزماق – *sig‘maq* ‘sig‘moq’ – سیقماق – *siqmaq* ‘qismoq’, ياقماق – *yag‘maq* ‘yog‘moq’ – يوگماق – *yaqmaq*, ya’ni ‘yoqmoq’ (*o‘t- olov*); ‘yaxshi ko‘rmoq’ kabi.

Birinchi rasm unli va undosh harflarda yuz beradigan o‘zgarishlarga bag‘ishlanib, uch faslga bo‘lib tekshirilgan. Birinchi fasl ابدال *ibdāl*, ya’ni almashuvga bag‘ishlangan bo‘lib, ikki qismdan tashkil topgan. Birinchi qism ابدال حروف *ibdāl-e horuf*, ya’ni harflar almashuvi, ikkinchi qism ابدال حرکت *ibdāl-e harakat*, ya’ni qisqa unlilar almashuviga bag‘ishlangan.

Harflar almashuvi qismida Mirzo Mehdixon so‘z oxirida *q* va *g‘* harflarining almashuvini (ham *q*, ham *g‘* bilan yozilishini) tushuntirib, uning qofiyaga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Bunga dalil qilib Navoiydan quyidagi baytlar keltirilgan:

ضعیف جسمیم ارا بیربیری نینک اوستیدا داغ  
فوروغ یغاج او زه دور یافراغ اوستیکا یافراغ

*Za’if jismim arā bir-biriniñ ýstidä dag‘*

*Qurug‘ yag‘ach ýzädýr yaprag‘ ýstigä yaprag‘* (101-bet).

باغ ایچره سنکا ساچتى گل آق و قىزىل يافراق  
شە باشىغە انداق كىم ايل آق و قىزىل يارماق

*Bāg‘ ichrā sejä sachtı gul aq-u qızıl yapraq*

*Shah bashig‘a andaq kim el aq-u qızıl yarmaq* (102-bet).

يار اياгин سوغە چون سالди كوزوم توكتى سرشك  
اي نوائي بىلە بلىغ غە كيراك مونداق بولاغ

*Yār ayag‘in sug‘a chun saldı közüm tökti serashk*

*Ey Navāiy bilä balig‘g‘a keräk mundaq bulaq* (103-bet).

اي نوائي بو بىبابان قطعىن آسان ايلادىنك  
اشكىدىن مونداق كە هر منزلدا چىكتىنىك يوز بولاق

*Ey Navāiy bu biyābān qat‘m āsān äylädiŋ*

*Ashkdin mundaqki har manzilda chektiŋ yyz bulaq* (103-bet).

Asarda **q** va **g‘** harflari bilan tugallangan buyruq fe'lida almashuv yuz bermasligi tushuntiriladi va agar almashuv yuz bersa, so‘zning ma’nosи o‘zgarishi aytildi. Fe'l forma belgilari ko‘pincha **q** harfi bilan yozilishi uqtirilgan. Masalan: ياق *yaq*, ya’ni yoq (yondir), ياخ *yag‘*, ya’ni yog‘, يىق *yiq*, ya’ni buz, يىق *yig‘*, ya’ni jamla, يىق *kabi*.

So‘z oxirida qisqa *a* unlisini ifodalovchi *alif* [ ՚ ] yozuvda *hoyi havvaz* [ ՚ ]ga almashuvi mumkinligi qayd qilingan. Masalan:

باغير خونابىدىن ضعف اولدى غالب خسته جانىمغا

آغىر ايردى غذا عود ايتى زحمت ناتوانىمغا

*Bag‘ir xunābidim za’foldı g‘ālib xasta jānimg‘a*

*Ag‘ir erdi g‘azā aud etti zahmat nātavānimg‘a* (105-bet).

ينه نى اوت ايدى كىم توشنى خانمانىمغا

ينه نى شعلە ايدى كىم توتاشتى جانىمغا

*Yana ne ot edi-kim tÿshti xānimānimg‘a*

*Yana ne shu’la edi-kim tutashti jānimg‘a* (105-bet).

Shunga o‘xhash اوزر = *etzä*, اىچرا = *ichrää*, ايتسا = *etsä*, يانىما = *yanimma* يانىمه kabi.

Muallif ikki o‘rinda qisqa, ya’ni jo‘nalish kelishigi affiksi hamda so‘z o‘rtasida *a* unlisini ifodalovchi *alif* ni *hoyi havvaz* bilan almashirish mumkin emasligini tushuntiradi: سنکا *meyä*, سېڭىچى *sejä*, توتار *tutar* kabi.

Jo‘nalish kelishigi affiksi vazifasini bajaruvchi -*na* affiksidiagi *hoyi havvaz* alif bilan almashmaydi. Masalan:

سېزە خطىنىك سوادى لعل سىراب اوستىنە

حضر گۇيا سايە سالمىش آب حيوان اوستىنە

*Sabza-yi xattinj savādī la'l-i serāb ustinä*

*Xizr goyā sāya salmish āb-i hayvān ustinä* (106-bet).

**Ikkinci rasm** ishlatilish paytida undosh va unli harflari o'zgaradigan so'z va affikslarga bag'ishlangan bo'lib, ikki qismni o'z ichiga oladi. Birinchi qism esa, to'rt turga bo'lib tekshirilgan: Birinchi tur *d* bilan boshlangan -di, دا دى -da, دين din, دور dur, دورور durur kesimlik bog'lamalari va affikslarni o'z ichiga olib, *t* bilan tugallangan negizga orttirilganda *d* tovushi *t* ga almashuvi, *b*, *ch*, *s*, *sh*, *q*, *k* bilan tugallangan negizlarga orttirilganda esa ham *d*, ham *t* bilan ifodalanishi, boshqa harflar bilan tugallangan negizga orttirilganda almashuv yuz bermasligi aytildi. Shunindek, agar دور -dur o'tgan zamon kesimlik bog'lamasini anglatса, albatta, تور tur shaklida ishlatilishi qayd qilingan:

کوزونك نى بلا قرا بولوبتۇر

جانغە نى قرا بلا بولوبتۇر

*Közjyj ne balā qarā boluptur*

*Jāng'a ne qarā balā boluptur* (110-bet).

Asarda eslatma shaklida ikki qoida taqdim etilgan bo'lib, birinchi qoidada ba'zan bir forma ikki ma'noga ega bo'lishi ta'kidlanadi. Mazkur forma bir ma'no anglatganda o'zak qattiq, ikkinchi ma'no anglatganda esa yumshoqdir. Masalan: اولتۇرمۇر ئۆلتۈرمەك *olturur*, ya'ni o'tiradi, o'ltiradi, *olturmaq*, ya'ni o'tirmoq ma'nosida o'zak qattiqdir, shuning uchun öltürmäk, ya'ni o'ldirmoq ma'nosida o'zak yumshoq, shuning uchun -gä, -kä orttirilishi qayd qilingan. Ikkinci qoidada esa *g* / *k* bilan tugagan o'zaklarga كا -gä, -kä, *q* / *g'* bilan tugagan o'zaklarga غا -g'a orttirilishi tushuntirilib, quyidagi baytlar dalil qilib keltirilgan:

تا ھوانى مىن اول آى هجرىدا اندق كىم بولۇت

تاقغە ھەر دە يۈز لانورمۇن ياش توکوب فريياد يېتىپ

Tā havā-nı men ul ay hajrıda andaq-kim bulut

*Taqg'a har dam yÿzlänýrmen yash tökyip faryād etip* (115-bet).

اولوچقە اولوچقە عطا ايلاسون

كىچىك كا كىچىك چا سحا ايلاسون

*Uluqg'a ulug'cha atā äyläsyn*

*Kichikkä kichikchä saxā äyläsyn* (115-bet).

**Uchinchi rasm** grammatik qoidaga zid ravishda yasalgan ba'zi so'zlarga bag'ishlanib, ishlatilishiga ko'ra ikki qismga bo'lib tekshirilgan. Birinchi qismda ايدىن *aydm*, ya'ni oydin, ishtan, ya'ni ishton, ichki kiyim, اىكىن *ikin*, ya'ni har ikkisi, سىونماك *sevunmäk*, ya'ni sevinmoq so'zleri tahlil qilingan. Mirzo Mehdixon ايدىن *aydm* so'zi اى ay va تون *tun*, ايشستان ishtan esa ich va تون *ton*, ya'ni kiyim so'zlarining birikuvidan tashkil topganligi, lekin ko'p ishlatilishiga ko'ra fonetik o'zgarish yuz bergenligini aytadi. اىكىن *ekin* so'zi "har ikkisi" ma'nosida grammatik

سیوونماک qoidaga binoan *ikkisin* bo‘lishi kerakligi, lekin *ikin* ایکیسین ishlatilishi tushuntirilgan. سیوونماک *sevinmäk* esa سیوینماک shaklida bo‘lishi kerakligi, chunki uning buyruq formasi *sevun* emas, سیوون *sevin* ekanligi qayd qilingan.

Ikkinci qism Alisher Navoiy asarlarida xato yozilgan yoki xato ko‘chirilgan so‘zlarni o‘z ichiga olib, uch turga bo‘lib o‘rganilgan

**To‘rtinchi rasm** turli qoidalari va ayrim eslatmalar izohiga bag‘ishlanib, beshta qoida va ikkita eslatmani o‘z ichiga oladi.

Oltinchi mabnoning 43 sahifadan iboratligi e’tiborga olinsa, bu o‘rinda ma’lumotlar ko‘lamini taxmin qilish qiyin emas. Umuman olganda, asar 1966 yili otam, sharqshunos olim Zikrillo Umarov (1936-1992) tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan va “Mirzo Mehdixonning “Maboniu-l-lug‘at” eski o‘zbek tili grammatikasi” mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyalariga ilova qilingan. Shu o‘rinda aytish kerakki, “Maboniu-l-lug‘at” asari Eronda nashr qilingan ishlarda **chig‘atoy turkiysi grammatikasi** [15, b.13] deb tavsiflanadi. Akademik Aliybeg Rustamiyning yozishicha: “O‘zbekning asosiy tabiiy bilimi madaniy imkoniyati va ma’naviy boyligini yo‘qotish maqsadida **eski o‘zbek tili** degan nom berilgan, aslida turkiy deb atalgan mumtoz o‘zbek tilida aks etgan. Shu tilda yozilgan ulkan va bebafo merosning ming yilligi arab yozuviga asoslangan turk xatida bitilgan. Sovet davrida bu xatning ta’limdan olib tashlanishi yalpi milliy savodsizlikni keltirib chiqardi. Mustaqil ijod sohibi bo‘lmish xalq milliy qadriyatlardan ajralib taqlidchilik yo‘liga o‘tdi” [4, b.4]. Istiqlolimizning ravnaqi ko‘p jihatdan tilimiz istiqloliga bog‘liq ekan, bugungi kunga kelib *eski o‘zbek tili* istilohini, yuqorida aytiganidek, *mumtoz o‘zbek tili* deb atash joiz ko‘rinadi.

## XULOSA

Mirzo Mehdixonning “Maboniu-l-lug‘at” grammatikasi puxta ishlangan bo‘lib, o‘zbek tili grammatikasiga oid yaratilgan birinchi qimmatli va to‘liq asardir. O‘quvchi mazkur asar materialini o‘zlashtirgach, “Sanglox” lug‘atidan to‘g‘ri foydalana oladi va Alisher Navoiy asarlarini o‘qib tushunishi mumkin bo‘ladi. Qolaversa, uning tadqiqi o‘zbek tilining tarixiy grammatikasiga doir echilmagan qator masalalarni hal qilish va o‘zbek tilining tarixiy grammatikasini tuzishda yordam beradi. “Maboniu-l-lug‘at” mumtoz o‘zbek tilining fonetik, grammatik xususiyatlarini va turkiy tillar haqidagi fors grammatika fani tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- Алимова, Х. З. (2019). Словообразовательные возможности суффикса چ-чи в языке дари. *Вестник Челябинского государственного университета*, (4 (426)), 14-20.

2. Мухитдинов К. “Санглах” Мирзы Мухамеда Мехдихана (Исследование, комментарии, перевод и транскрипция): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971.
3. Расулов Р. Ўзбек тилини ўрганиш тарихидан. – Ученые записки Андижанского госпединститута. – Андижан, 1955, №2.
4. Рустамий А. Ҳазрат-и Навоиййнинг маънавий олами. – Тошкент: Navro‘z nashriyoti, 2014.
5. Самойлович А.Н. Персидский тюрколог XVIII века Мирза Мехди-хан // Известия Общества обследования и изучения Азербайджана. №5. – Баку, 1927.
6. Умаров З.А. Грамматика староузбекского языка “Мабани ул-лугат” Мирзы Мехдихана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967.
7. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – Москва-Ленинград: АН СССР, 1962.
8. Alimova, K. Z. Adjective Forming by Affixation in the Dari Language.
9. ALIMOVA, K. (2020). Dari Word-forming Transposition Phenomenon. *International Journal of Pharmaceutical Research* (09752366).
10. АЛИМОВА, Х. З. (2020). Substantivization of participles in the dari language. *Иностранные языки в Узбекистане*, (5), 1-10.
11. Besim Atalay. Mirza Mehdi Mehmet Han. Senglah. Lugat-i Nevai. – Istanbul, 1950.
12. Denison Ross. The Mabani'-Lughat being a Grammar of the Turki Language in Persian by Mirza Mehdi Khan, *Bibliotheca Indica*, New Series, No. 1225, Calcutta 1910.
13. Eckmann J. Mirza Mehdis Darstellung der tschagataischen Sprache. – *Analecta Orientalia memorial Al. Csoma de Körös dicata*. – Budapest, 1942-1947.
14. Menges K.N. Das Cagatajische in der persischen Darstellung von Mirza Mahdi Han. – Mainz, 1956.
15. فرهنگ ترکی به فارسی سنگلاخ /اثر میرزا مهدی خان اسرآبادی (منشی الممالک نادرشاه افشار)؛ مقدمه، مقابله و تصحیح حسین محمدزاده صدیق. – تبریز: اختر، 1393.